

ONA TILI DARSALARIDA MA’NODOSH SO‘ZLAR USTIDA ISHLASH  
BO‘YICHA KO’NIKMALAR

Mamatsapoyeva Sevinch

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti boshlang‘ich ta’lim yo ‘nalishi  
talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darsalarida o‘quvchilarning ma’nodosh so‘zlarni interfaol usullardan foydalanib tashkil qilish haqida berilgan. Shuningdek, ona tili darsalarida ma’nodosh so‘zlarni oson tarzda o‘rgatish metodikasi haqida ham ma’lumot berilgan.*

**Abstract:** *In this article, students' organization of meaningful words using interactive methods is given in primary-grade mother tongue classes. Also, information about the method of teaching meaningful words in mother tongue classes is also given.*

**Kalit so‘z:** *boshlang‘ich sinf, ona tili, ma’nodosh, so‘zlar, innovatsion, o‘quvchi.*

**Key words:** *elementary school, mother tongue, meaningful, words, innovative, student.*

Biz bilamizki, boshlang‘ich sinflarda o’tiladigan darslar o ‘z ma’no va mazmuniga ega bo‘lib, yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyaklashda, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalanishda katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa, ona tili darsliklarida berilgan ma’lumotlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy savodxonligi oshishi bilan birga imloviy savodxonligi ham oshadi. Har bir darslikning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’lim darslariga o‘quvchilar qiziqishini va ishtiyoqini oshirishga alohida e’tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang‘ich sinflardanoq vatan, ona, ustoz kabi so‘zlarning naqadar qadrli ekanligini anglab yetadilar. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga har bir darslikdagi berilgan ma’lumotlarni ipidan ignasigacha o ‘rgatish kerak bo‘ladi. Shundagina kelajak mevalarini hosilini yig‘ib olishhimiz mumkin. Bugungi kunda o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida turli xil qiziqarli metodik o‘yinlardan foydalanish yaxshi natijasini bermoqda.

Biz kelajak avlodimiz bo‘lgan o‘quvchilarni har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor qilib tarbiyalashimiz kerak.

Umuman olganda, biz – yosh avlodni har doim vatanimizga munosib farzand bo'lishlari uchun zamon bilan hamnafas bo 'lgan holda tarbiyalashimiz lozim. Bugun bizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri- bu o 'quvchilarga chuqur bilim berish va yagona to'g'ri yo'lni ko 'rsata bilishimizdir. Bizdan beباho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiri sanalgan o'zbek tilini mukammal o'rganishimiz, og'zaki va yozma savodxonligimiz yuksak bo'lishi talab etilmoqda. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun biz zamonaviy innovatsion usullardan foydalanish biz kutgan samarani berishi mumkin. Zero, bugungi kunda davr o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham izlanishni, yangiliklarni izlab topishni talab etmoqda.

Sinonimlar (ma'nodosh so'rlar) - grekcha synonyms yoki synonymon "bir nomli" degan ma'noni bildirib, shakli har xil, ammo ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar sinonim deyiladi. Boshqacha aytilganda, bir predmet belgisi shaxs, voqeа bir necha nomda aytilishidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'nodosh so'zlarni o'rgatishdan maqsad: ularning so'z boyligini oshirishda, chiroyli fikrlashga va so'zlarning o'rni ornida qo'llashni ham shakllantiradi.

Sinonim so'zlar nutqning jozibali va ta'sirli bo'lishiga yordam beradi. Matnlar tuzganda biz ma'nodosh so'zlardan foydalanishni o'rgatish va ularning ma'nodosh so'zlarni ma'nosini farqlab olishga yordam beradi.

Ma'nodosh so'zlarning o 'ziga xos xususiyati bir xil so'z turkumi doirasida bo'lishidir: hayoli, andishali, oriyatli, iboli (sifat), yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol (ot).

Sinonimlar tilni leksik tomondan boyitadi, shuning uchun bnnday so'zlar bilan ishslash juda muhim. Kishi lug'atida sinonimlar qancha ko'p bo'lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi.

Boshlang'ich sinflarda ma'nodosh so'zlarga oid mashqlarni turli xil usullarda amalga oshirish mumkin. O'quvchilarning qay darajada tushunganliklarini ma'nodosh so'zlarga oid bo'lgan mashqlar orqali bilish mumkin.

O'quvchilarga ma'nodosh so 'zlar yozilgan qog 'ozlarni tarqatiladi va uning ichidan ma'nodosh bo'lmagan so'zni topishlari kerak bo'ladi. Masalan: ko'nikmoq, o'rganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq, bayon qilmoq, so'z aylamoq.Bularning ichidan farqli so'zni topib chiqarib tashlash kerak.kabi Bu kabi topshiriqlar o 'quvchilarning farqlash qobiliyatini shakllantirish bilan birga, tafakkur dunyosini ham kengaytiradi.

Ma'nodosh so 'zlarni topish uchun yanada oson tarzda bilish uchun xalq og 'zaki ijodi namunasi bo 'lgan maqol, topishmoq va she'riy misralardan ham

foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilarning yodlash qobiliyatini ham shakllantiradi. Shunday usullar yordamida o'quvchilardagi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish bu kunning eng muhim vazifalaridan biridir.O'quvchilarni har tomonlama yaxshi bilim olishlari uchun yangi-yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda darslarni tashkil qilish kerak.

Zamonaviy tizimidan foydalangan holda ekranda matnlar berilishi va o'quvchilar qaysisi mos kelsa o'shani o'rniqa qo'ygan holda davom ettirishlari kerak bo'ladi.Bunda o'quvchilarga kompyuter yoki telefondan foydalangan holda olib boriladi. Bu bilan ketadigan vaqt tejaladi va shu vaqtlar ichida ko'proq ilm-bilim berish mumkin.

1. Do 'st achitib gapiradi,.....kuldirib (yov, g 'anim, dushman).
2. .... do 'st ayrilmas (hisobli, sanoqli, o 'lchvli).
3. .... ga ayyor (muhayyo, shay, tayyor).
4. .... o 'zadi,egri to 'zadi (to 'g 'ri, vijdonli, insofli).

Nuqtalar o'rniqa to'g'ri javob bo'ladigan so'zni keltirib qo'yish kerakdir. Birinchi savolga "dushman" so'zini, ikkinchi gapga "hisobli" so'zini, uchinchi gapga "tayyor" so'zini, to'rtinchi gapga "to'g'ri" so'zini qo'yish bilan to'g'ri javoblarni tez va oson tarzda bajarish mumkin bo'ladi. Shunday topshiriqlarni kompyuter orqali bajartirish bolalar uchun juda foydali bo'lib hisoblanadi. Chunki axborot texnologiyalari asrida yashayotgan har bir yosh avlod kompyuterni yaxshi bilishi va undan to'g'ri foydalanishni bilishi kerak.

Kichik hajmli matn berish va "Kim chaqqon" o'yini asosida matndagi ma'nodosh so'zlarni topishlari kerak bo'ladi.

Bugungi shiddatli davrda har bir o'quvchi qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rganishni talab etmoqda.Ona tili darslari o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalariga asosligi quriladi.

Interfaol usullardan foydalangan holda darslarni tashkil qilish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo'yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'quvchilardagi loqaydlik, beparvolikni yo'qotib, dadillikka, ijodkorlikka chorlaydi, nofaollik kabi salbiy xususiyatlarga barham beradi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharafjon Sariyev "Ona tili o'qitish metodkasi". T.: "Nosir"2009
2. M.E.Tirova Ona tili I qism. Darslik 4-sinf uchun T.: 2023-38-bet
3. O'. Q. Tolipov va M. Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari - Toshkent.Fan. 2006.